SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 9 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 9 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

**МУНДАРИЖА**

## 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Matajonov Rahimjon Akramovich*
"VII-VIII ASRLARDA ARAB XALIFALIGI ISTILOSIGA QARSHI KURASHDA MAHALLIY HUKMDORLARNING O'RNI VA ROLI" MAVZUSIGA OID INGLIZ TILLI TADQIQOTLAR TAHLILI ........ 10-16

*Облобердиев Жасурбек Косим угли*
МЕРЫ НАКАЗАНИЯ, ПРИМЕНЯЕМЫЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВВ ........ 17-22


## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Турсунов Бекмухаммад Омонович*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МЕЗОН ВА КЎРСАТКИЧЛАРИ ........ 23-34

*Курпаяниди Константин Иванович*
ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ ........ 35-44

*Ahmedov Shohjaxon*
O'ZBEKISTONDA CHAKANA SAVDONI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI ........ 45-51

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
БЮДЖЕТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ ........ 52-62

*Рўзиев Абдумалик Ортиғалиевич*
МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИ БАҲОЛАШДА МИҚДОРИЙ ВА АХБОРОТ ТАҲЛИЛИ МЕТОДОЛОГИЯСИ ........ 63-73

*Abduraxmanova Shoxida Ravshanovna*
TIBBIYOT MUASSASALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ........ 74-80

*Davronov Istamxo'ja Olimovich*
MEHMONXONA XIZMATLARI RAQOBATBARDOSHLIGI VA SIFATINI BAHOLASH USULLARI ........ 81-86

*Маматов Бахадир Сафаралиевич*
ҲУДУДЛАРДА ИНВЕСТИЦИЯВИЙ МУҲИТ ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 87-96

*Шолдаров Дилшод Азимиддин ўғли*
КАМ ТАЪМИНЛАНГАН ОИЛАЛАР УЧУН НАФАҚА ВА МОДДИЙ ЁРДАМ ТАЙИНЛАШ ВА ТЎЛАШ ТАРТИБИ ........ 97-104

*Баратов Махсудали Назиралиевич*
МИКРОМОЛИЯВИЙ ТАШКИЛОТЛАР ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ – ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ ........ 105-116

*Ergashev Islom Ismoilovich*
KESKIN RAQOBAT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 117-127

*Қодиров Азизжон Анварович*
ЎТИШ ИҚТИСОДИЁТИ МАМЛАКАТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ АМАЛИЁТИ ........ 128-136

*Эшонкулов Акмал Кудратович*
ПРОБЛЕМЫ ПРОВЕДЕНИЯ АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ........ 137-142

*Астанов Шерзод Рустамович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 143-150

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Abdullayev Ibodulla Abdullayevich*
YOSHLARNI MILLIY G‘URUR RUHIDA TARBIYALASHDA OILA VA OILAVIY QADRIYATLARDAN UNUMLI FOYDALANISH USULLARI ........ 151-155

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
BAHS–MUNOZARALARDA QO‘LLANILADIGAN TUZOQLAR VA MANIPULYATSION (SPEKULYATIV) USULLAR ........ 156-164

*Alimatova Nargis Abduxalilovna*
BARQAROR RAQOBAT USTUNLIGI-RAQOBATBARDOSHLIK OMILI ........ 165-174

*Allayarova Marhabo Mavlonovna*
UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLAR BADIIY IJODINI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI ........ 175-179

*Рахманов Баҳодир*
СИНЕРГЕТИК ТАФАККУР: ФАЛСАФИЙ МЕРОСИМИЗНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 180-186

*Abdiraxmanov Muzaffar Zaripbayevich*
ABU ALI IBN SINONING XORAZM MA’MUN AKADEMISIDAGI FAOLIYATI ........ 187-191

*Mirzaxalov Xojiakbar Tajibayevich*
JAMIYATDA GENDER TENGLIGI MUAMMOSINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI ........ 192-197

*Azimov Ashirali Mehmonboyevich*
XOTIN-QIZLAR GENDER MA’RIFATINING IJTIMOIY BARQARORLIKKA TA’SIRI ........ 198-202

*Azimov Sherzod*
PHILOSOPHICAL REFLECTION ON THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF SPORT IN SOCIETY ........ 203-207

*Абдурахмонович Хасан Иброхимович*
ЎЗБЕКИСТОНДА ЁШЛАР ИННОВАЦИОН ТАФАККУРИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 208-216

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Kuliyeva Dilshoda Alijon qizi*
QUMAN TOPISHMOQLARINING OʻZBEK FOLKLORIDAGI PARALLEL SHAKLLARI .......... 217-223

*Тешабаева Дилфуза Муминовна, Абдухалилова Гулбаҳор Карабаевна*
ТУРИЗМ СОҲАСИГА ОИД СЎЗ ВА ИБОРАЛАРНИ ПРЕФИКСЛАР ЁРДАМИДА ЯСАЛИШИ .......... 224-230

*Abdinazarov Uktam Qushoqovich*
INGLIZ VA OʻZBEK TILLARIDA GIPPOLOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI.. 231-236

*Axmedova Shaxodat Maxmutovna*
OʻZBEK XALQ PAREMALARIDA SHIFO KONSEPTINING IFODALANISHI.......... 237-241

*Ruziyev Xusniddin Baxritdinovich*
JAHON TILSHUNOSLIGIDA PAREMALAR TADQIQI .......... 242-246

*Vositov Otabek Toxirjonovich*
TABIATNING ATMOSFERA HODISASI UMUMIY MA’NOSI VA LEKSIK SEMANTIK GURUHLARNING STRUKTURAL XUSUSIYATLARI .......... 247-253

*Нодир Раҳматуллаев*
НАЗАР ЭШОНҚУЛ НАСРИДА ШАРПА АРХЕТИПИНИНГ ТАЛҚИНИ .......... 254-260

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Мамасобиров Давронбек Эрназарович*
ВАТАНДОШЛАР БИЛАН ИШЛАШ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ .......... 261-270

*Urakov Djahongir Rajabovich, Sharipovasror Safar o’g’li*
OʻZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARNING HUQUQIY ASOSLARI .......... 271-276

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
OLIY TIBBIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI HISSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH .......... 277-281

*Umarova Zaxro Abduraxim qizi*
TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART FIKRLASH (THINKING OUTSIDE THE BOX) NING ROLI .......... 282-287

*Kadirov Ramz Turabovich*
TALABA-AKTYORLARNING SAHNA NUTQIGA OID BILIM VA KOʻNIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING SPETSIFIK TEXNOLOGIYALARI (DARS JARAYONIDAGI MASHGʻULOTLAR MISOLIDA) .......... 288-295

*Khabiba Madaminovna Jurabekova*
THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF LISTENING IN THE FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE OF STUDENTS IN RUSSIAN LESSONS .......... 296-302

*Nishonov Akmal Obidovich, Xamrakulov Xamidullo Turgunboyevich*
KLASTERLI OʻZARO TAʼSIR SHAROITIDA INFORMATIKA OʻQITUVCHILARINING MALAKASINI OSHIRISH JARAYONINI MODELLASHTIRISH MASALALARI ........ 303-310

*Ergashev Murodbek Ikromovich*
MUSIQA TAʼLIMIDA OʻQUVCHILARNING KREATIV VA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD IMKONIYATLARI ........ 311-316

*Utkirov Nusrat Kamilovich*
BOʻLAJAK JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHNING KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLI TAʼMINOTINI RIVOJLANTIRISH ........ 317-322

*Yulbarsova Xurshida*
BOʻLAJAK SOTSIOLOGLARDA IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK JIHATLARI ........ 323-329

*Baychayev Fazliddin Xusenovich*
BOʻLAJAK KON-METALLURGIYA SANOATI MUTAXASSISLARINING ELEKTROSTATIKAGA OID NAZARIY BILIMLARINI MUSTAHKAMLASH ........ 330-335

*Muminov Ulmas Ravshanqulovich*
OʻZBEKISTONDA “MAHALLA INSTITUTI” NING MAHALLIY OʻZ-OʻZINI BOSHQARISH – ORGANI SIFATIDA SHAKLLANISHI, UNING HUQUQIY ASOSLARINI YARATILISHI ........ 336-341

*Tajibayeva Ma’mura Tojidinovna*
AJDODLARIMIZ PEDAGOGIK TA’LIMOTLARINI O’RGANISH ASOSIDA TALABALARDA G’OYAVIY DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH ........ 342-346

*Askarova Zulayxo*
BOSHLANGʻICH TAʼLIM JARAYONIDA OʻQUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI ........ 347-352

*Akhmadjonova Diyora Dilshod qizi*
EXPLORING THE EFFECTIVENESS OF TEACHING THROUGH ONLINE PLATFORMS ........ 352-362

*Jumaniyazova Goʻzal*
OLIY OʻQUV YURTI TALABALARINI PIRLSGA YOʻNALTIRILGAN TOPSHIRIQLARNI TAYYORLASHGA OʻRGATISH METODIKASI ........ 363-367

*Хусаинова Лейла Юнусова*
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБУЧЕНИИ ФОНЕТИКЕ: ТЕХНОЛОГИИ И МЕТОДЫ ........ 368-373

*Xudayberganov Gʻayrat Quranboyevich*
MATEMATIK KREATIV TAVSIFDAGI MASALALARNING BOSHLANGʻICH SINF OʻQUVCHILARIDA KREATIV FIKRLASHINI FANLARARO ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOGʻLAB SHAKLLANTIRISHDAGI OʻRNI VA ROLI ........ 374-379

*Toʻxtasinov Muhammadjon*
PEDAGOGLAR KASBIY KOMPETENLIGINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMATNING OʻRNI ........ 380-384

*Eshnazarov Murod Karimovich*
GERMENEVTIK YONDASHUV ASOSIDA TA`LIM MAZMUNINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI ........................................ 385-391

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ 9 (3)-2023.
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

*13.00.00- Психология фанлари*

**Askarova Zulayxo**
Urganch davlat Pedagogika instituti oʻqituvchisi

# BOSHLANGʻICH TAʼLIM JARAYONIDA OʻQUVCHILARNING FIKRLASH DARAJASINI ANIQLASHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH SAMARASI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada taʼlim jarayonini innovatsion metodlar orqali tashkil etish, natijada, oʻquvchilarning ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini oʻstirishda didaktik qonuniyatlar, tamoyillar, taʼlim metodlari xususida fikr yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** boshlangʻich taʼlim, taʼlim tamoyillari va metodlari, fikrlash, IQ darajasi, oʻqitish texnologiyalari

---

**Asqarova Zulaykho**
Teacher of the Urgench State Pedagogical Institute

# THE EFFECT OF USING INNOVATIVE METHODS IN DETERMINING THE LEVEL OF THINKING OF STUDENTS IN THE PROCESS OF PRIMARY EDUCATION

**Abstract.** This article focuses on the organization of the educational process through innovative methods, as a result, didactic laws, principles, educational methods in the cultivation of creative, critical and logical thinking of students.

**Keywords:** elementary education, principles and methods of Education, thinking, IQ level, teaching technologies.

---

**Аскарова Зулейха**
преподаватель Ургенчского государственного педагогического института

# ЭФФЕКТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В ОПРЕДЕЛЕНИИ УРОВНЯ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности дидактических закономерностей, принципов, методов воспитания в организации образовательного процесса инновационными методами, в результате-в развитии творческого, критического и логического мышления учащихся.

**Ключевые слова:** начальное образование, принципы и методы обучения, мышление, уровень IQ, технологии обучения.

---

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I9Y2023N47

Taʼlim tizimida yoki oʻquv faoliyatida innovatsiyalarni qoʻllashda sarflangan mablagʻ va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi koʻzlanadi. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan oʻzgaruvchan mexanizmga ega boʻlishi zarur.

Taʼlim hodisalari va omillari oʻrtasidagi ichki zaruriy aloqalarni aks ettiruvchi didaktika qonunlari pedagogik faoliyatning nazariy asosi boʻlib xizmat qiladi. Oʻqitish va tarbiyalash jarayoniga turli xil omillar taʼsir koʻrsatishi tufayli didaktika qonunlari bir qiymatli, aniq natijani bermaydi, balki ehtimolli (bashorat qiluvchi) xarakterdagi ahamiyat kasb etadi. Taʼlim va tarbiyani amalga oshirish boʻyicha amaliy koʻrsatmalar didaktik tamoyillarda oʻz aksini topgan. Bugungi kunda pedagogik tadqiqotlarda umumiy oʻrta taʼlim, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi va oliy taʼlim uchun oʻqitish tamoyillari tizimini takomillashtirishga urinishlar davom etmoqda. Ularning takomillashtirilishi tabiiy. Chunki ular qotib qolmagan, oʻzida zamonaviy didaktika yutuqlarini sintezlashtiradi va ular taʼsirida doimo yangilanib boradi.

Asos boʻlib hisoblanuvchi va umumeʼtirof etilgan tamoyillar sifatida quyidagi tamoyillarni qayd etish mumkin: — rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi oʻqitish; — madaniy va tabiiy muvofiqlilik; — ilmiylik va nazariyaning amaliyot bilan bogʻliqligi; — tartiblilik va ketma-ketlilik (uzviylik, yaxlitlik, istiqbollilik); — onglilik va faollik; — qulaylik; — mustahkamlilik; — ijobiy motivatsiya.

Tartiblilik va ketma-ketlilik tamoyili har bir navbatdagi bilim va koʻnikmaning oldingisi bilan aloqasini koʻzda tutadi, bunda yangi eskini davom ettiradi. Uni bunday tushunish bugungi kunda ham dolzarb boʻlib qolmoqda, ammo shu bilan birga u ongda nafaqat tushuncha yoki qonunni, balki olamning yaxlit manzarasini aks ettirish bilan toʻldirilmoqda.

Tizimlilik va ketma-ketlilikka qoʻyilgan talab eng avvalo oʻqitish uzviyligini saqlashga yoʻnaltirilgan. Shuning uchun ham oʻqitish uzluksiz taʼlim tizimining barcha bosqichlarida mazmun, maqsad, metodlar, vositalar boʻyicha mantiqiy bogʻlangan tizim sifatida qurilgan boʻlishi kerak. Bu esa oʻz navbatida taʼlim oluvchi shaxsining istiqbolli rivojini taʼminlaydi.

Binobarin, insonning taʼlim tizimida kerakli bilim va koʻnikmalarni olishi uning kasbiy faoliyatiga va oʻz imkoniyatlarini, mehnat qilish salohiyatini hayotda amalga oshirishda poydevor yaratadi. Aynan shu sababli inson kapitali nazariyasida aholining taʼlim darajasi uning asosiy qiymatini tashkil etuvchi muhim komponent hisoblanadi, taʼlim olish va oʻz bilim-koʻnikmalarini oshirish esa inson mehnat faoliyatining tarkibiy qismi deb tan olinadi5.

Oʻz davrida ulugʻ rus kimyogar-olimi D.I.Mendeleev "Taʼlim insonning sarflagan vaqt va mehnati evaziga orttirgan insoniy donoligi va bebaho kapitalidir. Haqiqiy oʻqimishli kishi qachonki uning bilimlari va gʻoyalariga hukumatning yoki jamiyatning ehtiyoji mavjud boʻlganida oʻz oʻrnini topadi, aks holda u ortiqchadir", deb yozgan edi.

Oʻqimishli, ziyoli kishilarning kapitali haqiqatan ham ularning olgan taʼlimi – orttirgan bilim va koʻnikmalaridir. Inson kapitalining turlicha taʼrifi va talqinlari boʻlishidan qatʼiy nazar, uning tamalini insonda pirovard natijada bilim, saviya, koʻnikma, mahorat kabi oʻziga xos xususiyat va xislatlarni shakllantirgan taʼlim tashkil etishi bugungi kunda barcha biladigan haqiqat. Taʼlimsiz hech qanday inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish yoki foyda olish mumkin emas. Bundan kelib chiqadiki, taʼlim inson kapitalining asosiy komponentlaridan biridir va u taʼlim tizimi, taʼlim xizmati, taʼlimning sifati va ijtimoiy hamkorlik kabi tushunchalar bilan chambarchas bogʻliqdir. Umumiy orta taʼlimning dastlabki boʻgʻini hisoblangan boshlangʻich taʼlim tizimini samarali tashkil etish yangi Oʻzbeksitonda kamol topayotgan

yoshlarning oʻquv faoliyatida salohiyatli va oʻziga ishongan oʻquvchilarni tarbiyalash boshlangʻich sinf oʻqituvchisi oldiga qoʻyilgan ulkan masʼuliyatdir.

Bunda avvalo Oʻquvchining IQ darajasini oshirishga asosiy eʼtibor qaratish zarur.

Oʻquvchining miya faoliyatini mustahkamlash va yanada rivojlantirish xususida bir qancha usullar haqida gaplashamiz.Bolalarning miyasi tugʻilishdan uch yoshgacha tez rivojlanadi. Miyaning rivojlanishi bola oʻsishining barcha sohalariga taʼsir qiladi.

Rivojlanishning toʻrtta asosiy yoʻnalishi mavjud:

1. jismoniy;
2. hissiy;
3. ijtimoiy;
4. kognitiv.

Miyaning rivojlanishi kognitiv rivojlanishning bir qismidir. Kognitiv rivojlanish bolaning intellekti qanday oʻsishini tavsiflaydi va fikrlash, oʻrganish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oʻz ichiga oladi.

Bola hayotining dastlabki uch yili oʻrganish va rivojlanish uchun juda muhimdir. Koʻpgina ota-onalar farzandining miyasini rivojlantirishga qanday yordam berishlari mumkinligini soʻrashadi. Eng yaxshi usul — bolangizni kundalik mashgʻulotlar bilan faol shugʻullanish, oʻynash, oʻqish va kamdan kam stressga tushish kabi jarayonlardan iborat. Bu yerda stressga tushish bola miya faoliyatiga va aqliy darajasiga yomon tasir qilishi nazarda tutilmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning zarur shartlaridan biri taʼlim jarayonida oʻqituvchining roli oʻzgaradi, yaʼni u dars jarayonida:

-oʻquvchilarning mustaqil bilim olishlarini taʼminlovchi, yoʻnaltiruvchi, maslahat beruvchi;

-tafakkurni rivojlantirishning toʻgʻri yoʻnalishlarini koʻrsatuvchi, hamkorlik qiluvchi shaxs sanaladi.

Shularni inobatga olgan holda, boshlangʻich taʼlim jarayonini samarali tashkil etishda Ona tili va oʻqish savodxonligi darslarida foydalaniladigan metodlar oʻquvchilarni ijodiy, tanqidiy va mantiqiy fikrlashga xizmat qilmogʻi kerak. Oʻquvchilar fikri teran, dunyoqarashi keng boʻlsagina, kelajakda raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqadi. Biz metodlar ustida ishlab, uni oʻquv jarayoniga tatbiq etib boramiz. “Xayolparast, realist va tanqidchi” usuli

Ushbu metod kreativ tafakkurni shakllantiruvchi oʻyinlar va oʻquvchilar fikrlash darajasini oshiruvchi ajoyib bir taʼlim metodini oʻrganamiz. Oʻz faningizga nisbatan oʻquvchilarda kuchli qiziqish uygʻotish va mavzularni yaxshiroq tushunish uchun bugungi kun bilan bogʻlagan holda bir muammoli savol toping.Muayyan muammoni uch xil pozitsiyadan — xayolparast, realist va tanqidchi nazariyasidan kelib chiqqan holda hal qilish kerak boʻlgan qiziqarli oʻyin tashkil eting.Oʻquvchilar dastlab xayolparast obraziga kiradilar va eng gʻaroyib gʻoyalarni taklif qiladilar. Ikkinchisida, pragmatist boʻlishadi, muammoni hal qilish uchun aniq birlashtirilgan harakatlar rejasini tuzishadi va bir necha bor oʻylab koʻrishadi. Uchinchisida, oʻquvchilar bahslashib, tanqidiy fikrlaydi va taklif qilingan gʻoyalardan xatolarni topadi. Rollarni bir nechta odamlarga taqsimlash mumkin yoki ularning har birini bir oʻquvchida sinab koʻrish ham mumkin.Misol uchun siz, Tarbiya fanidan dars berasiz. “Nima uchun insoniyat jamiyati qadimda ham, oʻrta asrlarda ham va hattoki bugun ham urushlardan qutula olmayapti?” Xoʻsh, ushbu muammoli savolga kimda qanday fikr bor? Bu yerda aniq bir javob

yo‘q, yoki to‘g‘ri, noto‘g‘ri pozitsiyasi bo‘lmaydi. Muhimi o‘quvchi o‘z fikrini bildirar ekan, vaziyatga real va tanqidiy ko‘z bilan qaraydigan mustaqil fikrga ega bo‘ladi. Ushbu misolni har qanday fanda va har qanday mavzuda qo‘llashingiz mumkin.

Navbatdagi Qadam baqadam metodi

Bu metod asosan ma’lumotlar almashinuvi bo‘lib, 2ta o‘quvchi chiqadi. Sinf xonasining oxiriga eltib qo‘yiladi. Har 1ta ma’lumot aytgan o‘quvchi 1ta qadam tashlayveradi. Ma’lumot faqat o‘tgan mavzuga yoki yangi mavzuga tegishli bo‘lishi kerak. Ma’lumot takrorlansa yoki aytolmasa qadam tashlolmaydi. Kim birinchi ma’lumot aytib finish chizig‘iga yetib borsa, o‘sha o‘quvchi g‘olib hisoblanadi. Bu metod ham har bir o‘quvchini o‘zi uchun o‘zi harakat qilishga undaydi.Va men eng ko‘p qo‘llaydigan metod bu qatorma-qator savol-javob qilishdir. Oddiygina savol-javob qilish ham o‘quvchida fanga nisbatan katta qiziqish uyg‘otadi.

“Zakovatli zukko” metodi

Bunda o‘quvchilar uchun mulohaza qilinadigan savollar beriladi va ular guruhlarga bo‘lingan holda savolga javob beradilar.

Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi;

Ballarning belgilanishi o‘quvchilarning shaxsiy imkoniyatlari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi;

Metod o‘quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin.

Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g‘oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi mantiqiy usullar qo‘llanadi. O‘qilgan asarni analiz qilishda har xil ish uslublaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytadilar, o‘qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o‘qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so‘raydi. Natijada o‘qituvchi rahbarligida hikoyaning chizmasi tuziladi. O‘qituvchi bergan savollar yordamida asarlarning mazmuni aniqlanadi.

Shunday qilib, asar mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishlashni, ya’ni voqealarni, qatnashuvchilar tarkibini analiz qilishni talab etadi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri turli uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matnni to‘liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o‘qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o‘qituvchining savoli, o‘quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rolь o‘ynaydi. O‘quvchilar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O‘qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakati qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so‘zlab berishga, voqealarni izchil bayon qilinishga va o‘zaro bog‘liqligini yoritishga yo'naltirilishi lozim.

O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalaniladi: ayrim lavhalar o‘zaro bog‘lanadi (sintezlanadi),

bir-biriga taqqoslanadi, ular yuzasidan muhokama yuritiladi va xulosa chiqariladi. Koʻpincha boshlangʻich sinf oʻquvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, baʼzan notoʻgʻri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham oʻqituvchi savolni juda oʻylab tuzishi, u bolani fikrlashga, oʻylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bogʻlanishi yuzasidan muhokama yuritishga undaydigan, ularni oʻzaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan boʻlishi lozim. Oʻquvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq koʻz oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Tanlab hikoyalash ham bolalarning tafakkuri va nutqini oʻstirish vositalaridan biridir.

Tanlab hikoyalashda oʻquvchi:

1) oʻqilgan matndan bir qismini, uning chegarasini ongli ravishda ajratib soʻzlab beradi;

2) hikoyadan faqat bir voqeani aytib beradi;

3) hikoya mazmunini faqat bir syujet yoʻnalishida soʻzlab beradi.

Oʻquvchilarda tanlab qayta hikoyalash malakasini hosil qilishga boshlangʻich sinf izohli oʻqish darslarida keng qoʻllaniladigan metodik usullar yordam beradi.

A4 format metodi:

Bu metod dangasa oʻqituvchilar uchun juda qulay.Negaki, menda har xil kartochkalar, oʻyin oʻtkazish uchun turli koʻrgazmali qurollar yoʻq, deb qaygʻurmaysiz. Sizga faqatgina 1 varaq list kifoya. Aksariyat sinflarda oʻquvchilar 3 qator partada oʻtirishadi. Va har bir partada 2 tadan oʻquvchilar boʻladi. 6 dona listni olib, faqat birinchi partada oʻtirgan oʻquvchilarga 1 tadan berib chiqasiz. Ular oʻtilgan mavzu boʻyicha eslarida qolgan jumla, atamalarni qisqa qilib yozishlari kerak boʻladi. Oldinda oʻtirgan oʻquvchilar maʼlumot yozib, qogʻozni orqasidagi oʻquvchiga uzatadi. Maʼlumotlar takrorlanmasligi kerak. Shu tarzda har bir qator oxirigacha jumlalar yozib boradi.vQaysi qator birinchi tugatsa, imtiyozli 1 ballga ega boʻladi. Oxirida oʻtirgan oʻquvchilar doskaga chiqib A4 listda jamlangan maʼlumotlarni oʻqib beradi. Eng toʻgʻri informatsiyalar yozgan jamoa gʻolib hisoblanadi.

Shuni aytish lozimki, pedagogika fanida, oʻqituvchilarning amaliy tajribasini oʻrganish va umumlashtirish asosida taʼlim metodlarini tanlashga oʻquv tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bogʻliq muayyan yondashuvlar vujudga keladi.

Taʼlim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

• Taʼlimning umumiy maqsadlari.

• Fanning va oʻrganilayotgan mavzuning mazmuni hamda oʻziga xosliklari.

• Biror fanni oʻqitish metodikasining oʻziga xosliklari.

• Materialni oʻrganishga ajratilgan vaqt.

• Oʻquv mashgʻulotining maqsadi, vazifalari va mazmuni.

• Oʻquvchilarning yoshi va bilish imkoniyatlari.

• Oʻquvchilarning tayyorgarlik darajasi.

• Taʼlim muassasasining moddiy taʼminlanganligi.

• Oʻqituvchining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligi, pedagogik mahoratni egallaganlik darajasi.

Xulosa qilib aytganda, taʼlimga innovatsion metodlarni taklif etib, uni ishlab chiqish har bir pedagog va metodist uchun muhim vazifa sanaladi.

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Xo'jaev N.X., Xodiev B.Yu., Baubekova G.D., Tilabova N.T. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: Fan, 2002.
2. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar:mohiyati va qo'llanilishi / Metod.qo'll. - T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.
3. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. - T.: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008.
4. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. O'quv qo'llanma.-T.: 2006.
5. www.pedagog.uz
6. www.press uz.info

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SCP1342V3I9Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 9 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).